

**Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi (nepotizm) holatini  
yuzasidan tegishli hodim bilan suhbat  
BAYONNOMASI**

2026 yil "08" may

Toshkent shahri

Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig'i E.Amonov bankning  
AT Hooabank haydovchisi Abdullayev Rustam  
Kochkarovich

bilan (Kelgusida Xodim deb ko'rsatiladi) O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq, xodimning bankda ishlayotgan  
og'lim Abdullayev Jusan Rustamovich, Muammo li  
aktivlar bilan ishlash bo'limi bosh menejeri

bilan bevosita bo'ysunish yoki nazorat qilish holatlari yani Nepotizm holati yuzasidan tegishli tartibda suhbat o'tkazildi.

**Suhbat jarayonida xodimga:**

-O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 121-moddasi va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, o'zaro yaqin qarindosh bo'lgan shaxslarning bir davlat tashkilotida biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida ishlashi taqiqlanishi;

-Xizmat vazifalarini bajarish doirasida o'zining shaxsiy manfaatlari hamda unga aloqador shaxslarning (yaqin qarindoshlar, ulushga ega bo'lgan kompaniyalar) manfaatlari davlat organi manfaatlariga zid keladigan vaziyatlar haqida **darhol** (1 ish kuni ichida) xabar berishga majburligi;

-Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan holda qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi taqiqlanishi, bunday holatda qabul qilingan qarorlar esa sud tartibida **haqiqiy emas** deb topilishi mumkinligi;

-Manfaatlar to'qnashuvi holati o'zgargan taqdirda darhol qayta deklaratsiya taqdim etishi;

-Manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bermaslik yoki uni tartibga solish choralarini ko'rmaslik Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga asosan **jarima** solinishi;

-Mazkur masalalar bo'yicha har qanday shubhali vaziyat yuzaga kelganda, **Odob-axloq komissiyasi yoki Komplayens nazorat boshqarmasiga** murojaat qilish majburiyatini oldi.

**Xulosa va ko'riladigan choralar:**

1. Aniqlangan nepotizm holatini bo'yicha xodim bilan individual suhbat o'tkazildi, Manfaatlar to'nashuvi qonuni talablari va Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlari tushuntirildi.

2. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi topshirmaslik, to'liq ma'lumotlarni ko'rsatmaslik, yaqin qarindoshlar va ta'sischi ligida faoliyat olib borilayotgan yurudik shaxslar to'g'risida yolg'on ma'lumotlar kiritgan taqdirda, yuridik shaxslardagi ulushlari, aksiyalari va boshqa affilanganlik holatlarini ko'rsatmaslik, shuningdek real manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelganda xabar bermaslik yoki yolg'on habar bergan taqdirda intizomiy yoki ma'muriy javobgarlik qo'llanilishi yuzasidan xodim ogohlantirildi.

**Suhbatda ishtirok etuvchilar imzosi:**

Xodim:

      *Amonov*        
(imzo)

      *Abdullayev R. X.*        
(F.I.Sh.)

Suhbat o'tkazuvchi:

**Komplayens-nazorat  
boshqarmasi boshlig'i**

      *E. Amonov*      

**E. Amonov**